



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Umumiy o‘rtta ta’lim muassasalari Direktorlar kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoniga muvofiq, umumiy o‘rtta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga yuksak axloqiy fazilatlarga, yuqori malaka va tajribaga, boshqaruvchilik qobiliyatiga ega rahbar kadrlar bilan tayinlashni tashkil etish maqsadida **buyuraman**:

1. Quyidagilar:

Direktorlar kengashi to‘g‘risida Nizom 1-ilovaga muvofiq, Direktor lavozimiga ochiq tanlov o‘tkazish tartibi 2-ilovaga muvofiq, Umumiy o‘rtta ta’lim muassasalari direktorining malaka tavsiflari 3-ilovaga, Direktorlar kengashlari tarkibi 4-17-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (Z.Togayeva), Umumiy o‘rtta ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (E.Murodov), Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ularni tayyorlaydigan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (N.Kuchkarova) **bir hafta muddatda** Umumiy o‘rtta ta’lim muassasalari Direktorlar kengashi to‘g‘risida nizom mazmun-mohiyatini hududiy boshqarmalar va umumiy o‘rtta ta’lim muassasalari rahbar va xodimlariga tushuntirish ishlarini tashkillashtirsin.

3. A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti (A.Ismailov) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo‘limi (R.Musurmonov), Ta’lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti direktori (S.Radjabov), Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (Z.Togayeva) bilan birgalikda ikki hafta muddatda umumiy o‘rtta ta’lim muassasasi direktori lavozimiga nomzodlarni tanlash jarayoni “O‘qituvchilarning milliy kadrlar zaxirasi” maxsus elektron portalni orqali amalga oshirilishini inobatga olib, ushbu portalni takomillashtirish choralarini ko‘rsin.

4. Mazkur buyruq bilan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2022-yil 10-maydagi “Umumiy o‘rtta ta’lim muassasalari lavozimiga nomzodlarni dastlabki saralashdan o‘tkazish va xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga

tavsiya etish tartibi to‘g‘risida”gi 143сонли buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Axborot xizmati (D.Sobirova) Direktorlar kengashi faoliyati yo‘lga qo‘yilayotganligi vazirlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida hamda ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta’minlasin.

6. Devonxona (D.Isxakova) **bir kun** muddatda ushbu buyruqni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, boshqarma va bo‘limlar hamda tizim tashkilotlariga yetkazsin.

7. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari U.Begimkulov zimmasiga yuklatilsin.



Vazir

X. Umarova

Toshkent sh.,
2023-yil “29” - avgust,
270 -son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2023-yil “29” avgustdagi
270-son buyrug‘iga
1-ILOVA

Direktorlar kengashi to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlarda tashkil etilgan Direktorlar kengashi (keyingi o‘rinlarda – Kengash) maqomi, asosiy vazifalari, huquq va majburiyatları, shuningdek, faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizom talablari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlardagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarga nisbatan tatbiq etiladi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining buyrug‘i bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlardagi eng tajribali umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlaridan iborat bo‘lgan Kengash tuziladi.

Kengash Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlarda tuziladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlarini lavozimiga tayinlash bo‘yicha tavsiya beruvchi maslahat organi hisoblanadi.

Kengash o‘z faoliyatini jamoatchilik asosida yuritadi va oshkorlik, kollegiallik, o‘zaro hurmat, teng huquqlilik tamoyillariga amal qiladi va Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri hisobdor hisoblanadi.

3. Kengash o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Hay’atining qarorlariga, vazirning buyruqlari va ko‘rsatmalariga, ushbu Nizomga hamda boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

4. Kengashning Nizomi va tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi hamda uch yilda bir marta yangilab turiladi.

5. Kengash tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar

maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda – hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari) tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

2-bob. Kengashning asosiy vazifalari

6. Quyidagilar Kengashning asosiy vazifalari hisoblanadi:

umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga yuksak axloqiy fazilatlarga, yuqori malaka va tajribaga, boshqaruvchilik qobiliyatiga ega mutaxassislarini tanlash, saralash asosida munosib nomzodlarni tavsiya etish;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonlari boshqaruvini jamoatchilik ishtirokini kengaytirish orqali takomillashtirish, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga kiritish;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonlari sifati va samaradorligini ta’minalash, bunda, samarali boshqaruvni amalga oshirish, joylarda amaldagi me’yoriy hujjatlarga amal qilinishi monitoringini olib borish va tegishli takliflar ishlab chiqish;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida sog‘lom ishchanlik va ma’naviy muhitni shakllantirish, pedagoglarning samarali kasbiy faoliyati uchun tegishli sharoitlarni yaratish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlarining reyting ko‘rsatkichlarining yillik o‘sish dinamikasini ko‘rib chiqish jarayonlariga ko‘maklashish;

ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish asosida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlarining faoliyati samaradorligini baholash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlari, o‘qituvchilari va pedagoglarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilgan holatlarda vakolati doirasida tegishli tavsiyalar ishlab chiqish;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalari boshqaruvida sog‘lom muhitni tashkil etish maqsadida pedagoglar, ota-onalar, o‘quvchilar o‘rtasida so‘rovnomalar va o‘rganishlar o‘tkazish.

3-bob. Kengashning huquqlari va majburiyatları

7. Kengash o‘zining asosiy vazifalarini amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

o‘ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan axborotni belgilangan tartibda tegishli ravishda davlat organlari va tashkilotlari hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridan so‘rab olish;

ish rejalar va dasturlarni, ta’lim faoliyatini muhokama qilishda ishtirok etish, ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritish;

Kengash qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

8. Kengash ushbu Nizomda belgilangan asosiy vazifalar bajarilishini ta’minalashga majburdir.

Kengash qonunchilik hujjatlariga muvofiq o‘z zimmasiga boshqa majburiyatlarni ham olishi mumkin.

4-bob. Kengash faoliyatini tashkil etish

9. Kengash, qoidaga ko‘ra, rais, rais o‘rribosari, Kengash kotibi va a’zolaridan iborat tarkibda shakllantiriladi.

Bunda, Kengash a’zolari soni hududdagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalari sonidan kelib chiqqan holda gender tenglikni inobatga olib direktorlar orasidan 7 nafardan 11 nafargacha belgilanadi.

10. Kengash raisi:

Kengash majlisi kun tartibini belgilaydi va uni chaqiradi;

Kengash qarorlarini tasdiqlaydi va ular ijrosi nazorat qilinishini tashkil etadi;

Kengashning yillik ish rejasini tasdiqlaydi, shuningdek, Kengashga uning ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni taqdim etadi;

Kengash a’zolariga yuklangan vazifalar ijrosi bo‘yicha ularning ishini muvofiqlashtiradi;

Kengashning samarali faoliyatini ta’minalash uchun boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

11. Kengash o‘z vakolatlarini ta’lim tashkiloti rahbariga berishga haqli emas.

Kengash raisi o‘rribosari Kengash raisi yo‘qligida uning vazifasini bajaradi.

12. Kengash a’zolari:

Kengash majlislarida ko‘rib chiqiladigan masalalarni muhokama qilish va hal etishda ishtirok etadi;

ta’lim tashkilotini rivojlantirishning dolzarb masalalari bo‘yicha Kengash muhokamasiga takliflar kiritadi;

Kengash tomonidan ko‘rib chiqiladigan masalalar bo‘yicha tavsiyanoma yoki xulosalar taqdim etadi.

Kengash a’zolari majlisda shaxsan ishtirok etishi kerak.

Kengash a’zosi majlisda ishtirok etish imkonini bo‘lmaganda majlis kun tartibi bo‘yicha o‘z fikrini Kengashga yozma ravishda yuborish huquqiga ega.

13. Kengash o‘z ishini Kengash tomonidan tasdiqlangan rejalar asosida tashkil etadi va o‘z majlislarini zaruratga ko‘ra, biroq har oyda kamida bir marta o‘tkazadi.

Kengash raisi Kengash a'zolarining yozma iltimosnomalari asosida navbatdan tashqari majlislar chaqirishi mumkin. Kengash a'zolarining iltimosnomasida navbatdan tashqari majlis o'tkazishning sabablari va asoslari bayon qilinishi kerak.

14. Kengash majlisini Kengash raisi olib boradi, u bo'limgan taqdirda — Kengash raisi o'rribosari olib boradi.

15. Kengash yig'ilishi a'zolarning kamida uchdan ikki qismi (kvorum) ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi. Yig'ilish o'tkazish uchun kvorum shakllanmagan taqdirda, Kengash yig'ilishining navbatdagi o'tkaziladigan sanasi e'lon qilinadi.

16. Kengash majlisida ko'rib chiqilayotgan masalalarning xususiyatiga bog'liq ravishda Hududiy boshqarmalar boshliqlari va mutaxassislari, ta'llim tashkiloti xodimlari, alohida soha mutaxassislari taklif etilishi mumkin.

17. Kengash a'zosi bilan asosiy ish joyidan tuzilgan mehnat shartnomasi to'xtatilganda Hududiy boshqarmalari tomonidan nomzod tavsiya etiladi va Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri buyrug'i bilan Kengash tarkibiga kiritiladi.

18. Kengash kotibi:

Hududiy boshqarmalarning Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi bo'limi boshlig'i bo'lib, Kengash yig'ilishlarida ovoz berish huquqiga ega bo'lmaydi.

barcha zarur hujjatlar Kengash majlisiga o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi;

majlisni o'tkazish muddati va joyini Kengash raisi bilan kelishadi;

kun tartibidagi masalalar bo'yicha Kengash majlislari o'tkazilishini tashkil etadi;

Kengash a'zolarini va taklif etilgan shaxslarni majlis o'tkaziladigan sana, kun tartibi loyihasi, vaqt va joyi to'g'risida xabardor qiladi;

Kengash qarorlari ijrosi monitoringini olib boradi;

Kengash bayonnomalarini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomalarni Kengash a'zolariga va boshqa manfaatdor tashkilotlarga yuboradi;

Kengash hujjatlari saqlanishini, shuningdek, Kengashning faoliyati to'g'risidagi axborotni rasmiy veb-saytda joylashtirilishini ta'minlaydi.

5-bob. Kengash tomonidan qarorlar qabul qilinishi va ularning ijrosini tashkil etish

19. Kengash qarori majlisda ishtirok etayotgan Kengash a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lib qolganda, Kengash raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

20. Kengash qarorlari Kengash majlisining bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Kengash majlisining bayonnomasi Kengash raisi tomonidan tasdiqlanadi va ikki kunlik muddatda Kengash a'zolariga yuboriladi.

Kengash majlisi bayonnomasi rasmiylashtirilgan sanadan boshlab 3 ish kuni mobaynida Kengash kotibi tomonidan tegishli ravishda hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga yetkazilishini ta’minlaydi.

21. Kengash bayonnomasining asli va unga tahliliy materiallar tegishli ravishda hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalarida saqlanadi.

22. Kengash kotibi Kengash a’zolari ko‘magida Kengash qarorlari bajarilishini muntazam ravishda o‘rganadi va ko‘rib chiqadi, zarurat bo‘lganda, Kengash raisiga tegishli takliflar kiritadi.

23. Kengash a’zolari faoliyati samaradorligi natijalariga ko‘ra Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasining taklifi bilan Ta’lim sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining besh barobarigacha miqdorda rag‘batlantirilishi mumkin.

6- bob. Yakunlovchi qoidalar

24. Ushbu Nizom qo‘llanilishi munosabati bilan yuzaga keladigan nizolar belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

25. Kengashni qayta tashkil etish va tugatish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining buyrug‘i bilan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2023-yil “29” - avgustdagি
270-son buyrug‘iga
2-ILOVA

Direktor lavozimiga ochiq tanlov o‘tkazish tog‘risida

TARTIB

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Tartib Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining bo‘sh (vakant) bo‘lgan direktor lavozimiga ochiq tanlov (keyingi o‘rinlarda – tanlov) o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Tanlov umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida bo‘sh (vakant) bo‘lgan direktor lavozimlariga belgilangan malaka talablariga muvofiq eng munosib nomzodni dastlabki saralashdan o‘tkazish va Direktorlar kengashi tavsiyasi asosida ishga qabul qilish maqsadida o‘tkaziladi.

3. Mazkur Tartib talablari quyidagi umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari direktori lavozimlariga tatbiq etilmaydi:

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablari;

jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari;

sanatoriylar turidagi ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasalari;

ixtisoslashtirilgan mакtab-internatlar va ixtisoslashtirilgan maktablar;

alohida sharoitlarda ta’minalash, tarbiyalash va ta’lim berishga muhtoj bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar.

4. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari (keyingi o‘rinlarda – maktab) direktorlarini lavozimga tayinlash Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (keyingi o‘rinlarda – hududiy boshqarmalar) tomonidan Direktorlar kengashi tavsiyasi bilan amalgalash oshiriladi.

5. Mazkur Tartibda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi.

bo‘sh (vakant) lavozim – Vazirlik tuzilmasida belgilangan, tegishli malakaga ega xodim qabul qilinishi mumkin bo‘lgan maktablardagi direktor lavozimi.

nomzod – vakant lavozimga ishga kirish uchun elektron tarzda murojaat qilgan jismoniy shaxs yoki tizimda faoliyat yuritayotgan xodim.

dastlabki saralash tanlovi - mazkur Tartib talablari asosida o'tkaziladigan, nomzodlarning maktab direktori lavozimi uchun belgilangan malaka talablariga mosligini dastlabki saralashga qaratilgan, Direktorlar kengashiga tavsiya etish uchun yuborish jarayonlaridan iborat holatlar majmui.

6. Dastlabki saralash tanlovi mehnatga oid qonun hujjalari hamda mazkur Tartib talablariga asosan amalga oshiriladi.

7. Maktab direktori lavozimiga davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallash huquqi qonunchilik bilan cheklanmagan va malaka talablariga javob beradigan fuqarolar nomzod sifatida ishtirok etishi mumkin.

8. Maktab direktori lavozimi uchun malaka talablari:

kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumot;

menejerlik sertifikati;

ta'lim sohasida kamida 5 yillik pedagogik staj;

xorijiy tillarni va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilishi (tanlov jarayonida ustuvorlik beradi).

9. Maktab direktori lavozimida ishlab turgan xodimni boshqa matabning vakant bo'lgan direktor lavozimiga amaldagi mehnat qonunchiligiga muvofiq hududiy boshqarmalari boshlig'i buyrug'i bilan tanlovsiz rasmiylashtiriladi.

2-bob. Tanlovnii tashkil etish tartibi

10. Maktab direktorlari lavozimiga nomzodlarni ochiq tanlov asosida saralash va lavozimga tayinlash mazkur Tartibga ilova qilingan sxema asosida amalga oshiriladi.

11. Maktab direktori lavozimiga nomzodlarni dastlabki saralashdan o'tkazish maqsadida hududiy boshqarmalarda direktor lavozimiga nomzodlarni dastlabki saralashdan o'tkazish bo'yicha komissiya tuziladi.

12. Komissiya tarkibi hududiy boshqarmalar boshlig'ining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

13. Komissiya tarkibiga hududiy boshqarmasi boshlig'i, o'rinnbosarlari, boshqarmaning Yuridik xizmat ko'rsatish, Umumiyligi o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish, Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish sho'balari, Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo'limi mas'ul xodimlari hamda tegishli tuman (shahar) matabgacha va maktab ta'limi bo'limi rahbarlari kiritiladi.

14. Tanlovnii tashkil etish hududiy boshqarmalarning Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo‘limi (keyingi o‘rinlarda mas’ul deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

15. Vakant direktor lavozimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar avtomatik tarzda “Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy apparat kompleksidan foydalangan holda “O‘qituvchilarning milliy kadrlar zaxirasi” elektron portali (ntr.avloniy.uz)ga joylashtiriladi.

16. Mazkur E’lon hududiy bo‘linmalarning rasmiy veb-saytida yoki ijtimoiy tarmoqlardagi e’lon sahifalariga, davriy nashrlarda ham joylashtirilishi mumkin.

2.1-bob. Dastlabki saralashni tashkil etish tartibi

17. Dastlabki saralash quyidagi bosqichlar asosida tashkil etiladi:

Birinchi bosqichda har bir hududiy boshqarma tomonidan Dastlabki saralash o‘tkazilishi to‘g‘risida e’lon 10 kun muddatga ntr.avloniy.uz elektron portali orqali beriladi.

Bunda, vakant direktor lavozimi bo‘yicha quyidagilar ko‘rsatilishi majburiy hisoblanadi:

malaka talablari;
lavozim majburiyatları;
amaldagi lavozim maoshi;
vakant direktor lavozimi mavjud umumta’lim muassasasi nomi va manzili.

Ikkinci bosqichda:

Komissiya tomonidan ntr.avloniy.uz elektron portali orqali ariza yuborgan nomzodlarning hujjatlari qabul qilinadi va ularning hujjatlari shaffof, adolatli tartibda e’lon muddati tugagan kundan boshlab 5 ish kunida o‘rganib chiqiladi.

Mas’ul talabgorlar tomonidan yuborilgan arizalar asosida nomzodning avtomatlashirilgan shakldagi ma’lumotnomma (CV)ni komissiyaga malaka talablariga mos kelishini o‘rganish uchun taqdim etadi.

Nomzodlar tomonidan tanlovda ishtirok etish bo‘yicha tanlov natijasiga ta’sir qiladigan yolg‘on ma’lumotlar taqdim etilganda ularni tanlovdan chetlatish yoki tanlov natijalarini bekor qilishga asos bo‘ladi.

Uchinchi bosqichda komissiya tomonidan saralangan nomzodlar hujjatlari Kengashga taqdim etiladi.

18. Tanlovda ishtirok etish bo‘yicha hujjatlar kelib tushmagan taqdirda qayta e’lon beriladi.

3-bob. Kengash tomonidan suhbat o‘tkazish va tavsiya berish tartibi

19. Kengash kotibi tanloving suhbat bosqichi o‘tkazilishi bo‘yicha ma’lumotlarni nomzodlarning Portaldagi shaxsiy kabinetlariga suhbat jarayonidan kamida 3 kun oldin xabar yuborilishini ta’minlaydi.

20. Suhbat jarayoni intervyu usulida har bir nomzodga soha bo‘yicha bilim saviyasi, shaxsiy va boshqaruv kompetensiyasi, umumiylar dunyoqarashi ta’lim sohasidagi islohotlardan xabardorligi, umumiylar o‘rtalim mакtablaridagi mavjud muammolarni bartaraf etish malakalarining mosligini aniqlashga qaratilgan savol (topshiriq), tasodifiy tanlash (random) orqali beriladi. Bunda, har bir nomzod bilan suhbat davomiyligi 30 daqiqadan oshmasligi lozim.

21. Kengash qarori yig‘ilishda ishtirok etayotgan a’zolarning ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

22. Kengash a’zosi qabul qilinayotgan qarorlar bo‘yicha o‘zining fikrini yozma shaklda ifodalashga haqli. Uning fikri yig‘ilish bayonnomasida qayd etiladi.

23. Nomzodlarning suhbat jarayoni to‘liq video tasvirga olinadi va bir yil muddatda saqlanadi.

24. Kengash yig‘ilishida qabul qilingan qaror bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi hamda kengash raisi, rais o‘rinbosari va kotib tomonidan tasdiqlanadi.

25. Kengash tomonidan suhbat natijalariga asosan bir nafar nomzod direktor lavozimiga tayinlash bo‘yicha hududiy boshqarmaga tavsiya etiladi.

26. Hududiy boshqarmalar boshlig‘i 3 ish kunida Kengash qaroriga ko‘ra direktor lavozimiga tavsiya etilgan nomzodni tayinlash to‘g‘risida buyruq chiqaradi.

Kengash tomonidan suhbat natijalariga ko‘ra direktor lavozimiga nomzodlar munosib deb topilmaganda, qayta e’lon berish uchun hududiy boshqarmaga tavsiya beriladi.

27. Nomzodlar suhbat qaroridan norozi bo‘lgan taqdirda 5 ish kuni ichida suhbat natijalari yuzasidan yuqori turuvchi organga murojaat qilish huquqiga ega.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

28. Ushbu tartibni qo‘llashda yuzaga keladigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2023-yil “ 29 ”-avgustdagি
270-son buyrug‘iga
3-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi
tasarrufidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlarining malaka
tavsiflari**

Talablar nomi	Lavozim nomi va unga qo‘yiladigan malaka talablari
Ma’lumot	Kamida bakalavr darajasidagi oliy ma’lumot va menejerlik sertifikati
Mehnat staji	Ta’lim sohasida kamida 5 yillik pedagogik staj
Qo‘shimcha talablar	O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunlardan to‘liq xabardor bo‘lishi; xorijiy tillardan birining boshlang‘ich bosqichini va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilish; Davlat tilini bilish (<i>rus, ingliz va boshqa chet tillarini bilish ustuvorlik beradi</i>).

Umumiy o‘rtta ta’lim muassasalarida
bo‘sh (vakant) bo‘lgan direktor
lavozimiga tanlov o‘tkazish
to‘g‘risida tartibga

ILOVA

**Umumiy o‘rtta ta’lim muassasalari direktorlari lavozimiga nomzodlarni ochiq tanlov asosida saralash va lavozimiga tayinlash
SXEMASI**

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddati
1-bosqich	<p>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo‘limi</p>	<p>Bo‘sh (vakant) direktor lavozimi uchun e’lon berish</p> <p>Umumiy o‘rtta ta’lim muassasalari direktorlari lavozimiga tanlov o‘tkazish to‘g‘risida e’lon “Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksidan foydalangan holda “O‘qituvchilarning milliy kadrlar zaxirasi” elektron portalni (ntr.avloniy.uz), hududiy boshqarmalarning rasmiy veb-sayti (yoki ijtimoiy tarmoqlardagi e’lon sahifalari) orqali beriladi.</p> <p>Ehtiyojdan kelib chiqib, davriy nashrlarda joylashtirilishi mumkin.</p> <p><i>Tanlovda ishtirok etish bo‘yicha nomzodlarning arizalarini qabul qilish muddati tanlov e’lon qilingan kundan boshlab 5 kunni tashkil qiladi.</i></p> <p><i>Tanlovda ishtirok etish bo‘yicha arizalar kelib tushmagani taqdirda, arizalarni qabul qilish muddati avtomatik tarzda 5 kunga uzaytiriladi.</i></p>	<p>Bo‘sh (vakant) lavozim yuzaga kelgandan boshlab 3 ish kunidan kechiktirmay</p>
2-bosqich	<p>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo‘limi</p>	<p>Nomzodlarning hujjalarni qabul qilish</p> <p>Umumiy o‘rtta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarning hujjalari ntr.avloniy.uz portalni orqali qabul qilinadi.</p>	<p>Tanlov e’lon qilingan kundan e’tiboran 5 kun mobaynida</p>
3-bosqich	<p>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi,</p>	<p>Nomzodlarning malaka talablariga mosligini o‘rganish</p> <p>Nomzodlarning umumiy o‘rtta ta’lim muassasalari direktori lavozimini egallash uchun belgilangan malaka talablariga mosligi o‘rganiladi; o‘rganish natijasida malaka talablariga mos kelgan nomzodlar tanlov</p>	<p>Ariza qabul qilish muddati tugagan kundan e’tiboran 3 ish kun ichida</p>

	Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari Umumiyo'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni dastlabki saralashdan o'tkazish bo'yicha komissiya	ishtirokchilari ro'yxatiga kiritiladi; malaka talablarini o'rganish natijalari ntr.avloniy.uz portali orqali nomzodlarga ma'lum qilinadi.	
4-bosqich	Direktorlar kengashi	<p>Nomzodlarni suhbatdan o'tkazish va tavsiya etish</p> <p>Umumiyo'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzod bilan suhbat qilinadi</p> <p>Suhbat natijalariga asosan bir nafar nomzodni vakant (direktor) lavozimiga tayinlash bo'yicha hududiy boshqarmaga tavsiya beriladi *.</p>	<p>Hududiy boshqarma Kengashga dastlabki saralashdan nomzodlarni taqdim etganidan so'ng 3 ish kunida</p> <p>Kengash yig'ilishi o'tkazilganidan so'ng 1 kun ichida</p>
5-bosqich	Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari	Lavozimga tayinlash Direktorlar kengashi tomonidan tanlab olingan nomzodlarni umumiyo'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga tayinlash to'g'risida buyruq rasmiylashtiriladi hamda nomzodga ntr.avloniy.uz portali orqali xabar yuboriladi.	Kengash qarorini olgandan so'ng 3 ish kun ichida

Izoh: Tanlov g'olibini maktab direktori lavozimiga tayinlash to'g'risida buyruq nusxasi nomzod ishga qabul qilingan kundan e'tiboran 3 kun muddatda hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo'limi tomonidan ntr.avloniy.uz portaliga joylashtiradi.

* O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmonining 4-bandiga muvofiq, Direktorlar kengashi tomonidan suhbat o'tkazib, eng munosib nomzod tanlab olinadi.

O'zbekiston Respublikasi
 Maktabgacha va maktab ta'limi
 vazirining 2023-yil "29"-avgustdag'i
 270-sod buyrug'iga
 5-ILOVA

Andijon viloyati direktorlar kengashi
RO'YXATI

T/r	F.I.Sh., tug'ilgan yili va joyi	Lavozimi
1.	Djaxongirova Parizod Ibaydulayevna 1965-yil, Andijon viloyati	Andijon shahar 6-son umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori, Kengash raisi
2.	Nurmatova Shoxistaxon Muxammadjonovna 1970-yil, Andijon viloyati	Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabi direktori, Kengash raisi o'rinnbosari
3.	Xalmatov Xasanboy Xaydarjanovich 1980-yil, Andijon viloyati	Andijon viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo'limi boshlig'i, Kengash kotibi
4.	Muxtarova Vazira Nurmatovna 1963-yil, Andijon viloyati	Andijon shahar 18-son umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori, Kengash a'zosi
5.	Yuldashev Firuza Rasulovna 1965-yil, Andijon viloyati	Andijon shahar 30-son umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori, Kengash a'zosi
6.	Rislikboyev Sardorbek Ulug'bek o'g'li 1992-yil, Andijon viloyati	Andijon shahridagi Prezident maktabi ijrochi direktori, Kengash a'zosi
7.	To'lanov Jaxongirbek Shermaxammadjonovich, 1983-yil, Andijon viloyati	Buloqboshi tumani 43-son matematika faniga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lif maktabi direktori, Kengash a'zosi

T/r	F.I.Sh., tug‘ilgan yili va joyi	Lavozimi
8.	Kodirov Umidjon Ismatovich 1986-yil, Navoiy viloyati	Xonobod shahar ixtisoslashtirilgan maktabi direktori, Kengash a’zosi
9.	Aliyev Xomidjon Ibragimovich 1981-yil, Andijon viloyati	Paxtaobod tumani 21-son ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internati direktori, Kengash a’zosi
10.	Shodmonaliyeva Muxayyo Baxodirovna 1972-yil, Andijon viloyati	Izboskan tumani 15-son davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internati direktori, Kengash a’zosi
11.	Dadaboyeva Manzuraxon Olimjonovna 1970-yil, Andijon viloyati	Andijon tumani 10-ixtisoslashtirilgan maktab-internati direktori, Kengash a’zosi
12.	Isabayev Sherzodbek Ergashboyevich 1980 yil, Andijon viloyati	Oltinko‘l tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab direktori, Kengash a’zosi

O‘zbekiston Respublikasi
 Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
 2023-yil “29”-avgustdagи
 270-son buyrug‘iga
 6-ILOVA

**Buxoro viloyati direktorlar kengashi
 RO‘YXATI**

T/r	F.I.Sh., tug‘ilgan yili va joyi	Lavozimi
1.	Navruzov Firdavs Shavkatovich 1988-yil, Buxoro shahri	Buxoro shahridagi Prezident maktabi ijrochi direktori, Kengash raisi
2.	Ochilova Nilufar Xudoyberdievna, 1977-yil, Buxoro viloyati	Kogon shahar 4-son umumiy o‘rtta ta’lim maktabi direktori, Kengash raisi o‘rinbosari
3.	Muqumov G‘ayrat Ilyos o‘g‘li 1995-yil, Buxoro viloyati	Buxoro viloyat maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i, Kengash kotibi
